



INNOVATION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

2026

№3

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY

Scientific and practical electronic journal



Indexlanadigan bazalar:  Google Scholar  Crossref  OpenAIRE  CYBERLENIKA



INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL

3-jild
3-son
March, 2026

February, 2026
Volume 3
Number 3

ИННОВАЦИОННАЯ
ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY
Electronic scientific and
practical journal



INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Tahririyat Kengashi raisi o‘rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mas’ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Texnik muharrir:

S.J.Qulmurotov

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko‘chasi 225-uy Tel.:

+998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

innoeconomic@kstu.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko‘rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Ovchinnikov Viktor Nikolayevich - i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)

Solodovnikov Sergiy Yurevich - i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)

Sidorov Viktor Aleksandrovich - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)

Shevchenko Igor Viktorovich - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)

Kusainov Xalel Xaymullievich - i.f.d., professor, akademik (Qozog‘iston Respublikasi Milliy fanlar akademiyasi)

Samandarzoda Iskandar Hakim - Iqtisodiyot fanlari doktori (Sh.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)

Gibadullin Artur Arturovich - i.f.n. dotsent (Milliy tadqiqot universiteti, Moskva energetika instituti, Rossiya)

Sergey Aleksandrovich Voynash - ilmiy xodim (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Valentina Nikolayevna Pulyayeva - iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi hukumati qoshidagi Moliya universiteti)

Dmitriy Evgenievich Morkovkin, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Moliya universiteti, Rossiya Federatsiyasi hukumati)

Sadriddinov Manuchehr Islomiddinovich - i.f.d., professor, (Tojikiston Respublikasi Milliy fanlar Akademiyasi)

Perskaya Viktoriya Vadimovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Molchanov Igor Nikolayevich - i.f.d., professor, (Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti)

Basova Mariya Mixaylovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Aleksandr Leonidovich Chupin, iqtisod fanlari nomzodi (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Nezamaykin Valeriy Nikolayevich - i.f.d., professor, (Rossiya davlat gumanitar universiteti)

Nikonorova Alla Vladimirovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Dmitriyeva Olga Aleksandrovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Shvets Yuriy Yuryevich - i.f.n., dotsent, (Rossiya Fanlar akademiyasining Nazorat fanlari instituti)

Kolosova Yelena Valeryevna - i.f.n., dotsent, (Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti)

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik (Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor)

Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor

Xatamov Ochilid Qurbonovich - i.f.d., professor

Fayziyeva Shirin Shodmonovna - i.f.n., professor

Jumayeva Gulrux Jo‘raqulovna - i.f.n., professor

Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent

Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor

Yakubova Shamshinur Shuxratovna - i.f.d., (DSc) dotsent

Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Samiyeva Gulnoza Toxirovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aliqulov Azamat Tuyg‘unovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aminov Fazlitdin Baxadirovich - i.f.n., dotsent

Xo‘jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.d., (DSc), dotsent

Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich - i.f.f.d. (PhD), dotsent

Muxammadiyeva Yulduz Yusupovna - i.f.f.d. (PhD)

Tursunova Aziza Xoshimovna - i.f.f.d. (PhD)

Xolliyev Sherali Baxtiyorovich - i.f.f.d. (PhD)

Panjiyev Samijon Aliqulovich - PhD, dotsent



ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Учредитель:

**Каршинский государственный технический
университет**

Председатель редакционного совета:

Р.Х.Эргашев, доктор экономических наук, профессор

Заместитель председателя редакционного совета:

С.Н.Хамраева, доктор экономических наук,
профессор

Ответственный редактор:

Н.А.Очилова, PhD, доцент

Технический редактор:

С.Ж.Кулмуротов

Журнал издается один раз в месяц в
электронной форме и публикуется через
официальный сайт журнала.

Адрес редакции:

180100, г. Карши, ул. Мустакиллик, дом 225

Тел: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Факс: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@kstu.uz

Научно-практический электронный журнал
«Инновационная экономика» включён в перечень
национальных научных изданий на основании
решения Президиума Высшей аттестационной
комиссии при Министерстве высшего образования,
науки и инноваций Республики Узбекистан от 5
апреля 2025 года № 369.

**В журнале публикуются статьи по
следующим рубрикам:**

1. Теория и методология
2. Цифровая экономика
3. Экономика регионов и отраслей
4. Малый бизнес и частное
предпринимательство
5. Экономика человеческого капитала
6. Менеджмент и маркетинг
7. Бухгалтерский учет, экономический анализ и
аудит
8. Финансы, кредит и инвестиции
9. Эконометрика и статистика
10. Сфера услуг и туризм

Редакционная коллегия:

Международные члены Совета редколлегии:

Овчинников Виктор Николаевич - д.э.н., профессор, академик
(Южный федеральный университет, Россия)
Солодовников Сергей Юрьевич - д.э.н., профессор
(Белорусский национальный технический университет)
Виктор Александрович Сидоров - д.э.н., профессор,
(Кубанский государственный университет)
Шевченко Игорь Викторович - д.э.н., профессор (Кубанский
государственный университет)
Кусаинов Халел Хаймуллович - д.э.н., профессор, академик
(НААН Республика Казахстан)
Самандарзода Искандар Хаким - д.э.н., профессор
(Таджикистанский аграрный университет им. Ш.
Шотемура)
Гибатуллин Артур Артурович - к.э.н., доцент
(Национальный исследовательский университет
«Московский энергетический институт»)
Войнаш Сергей Александрович - научный сотрудник
(Российского университета дружбы народов имени
П.Лумумби)
Пуляева Валентина Николаевна - к.э.н., доцент
(Финансовый университет при Правительстве РФ)
Морковкин Дмитрий Евгеньевич - к.э.н., доцент
(Финансовый университет Правительство РФ)
Садриддинов Манучехр Исламиддинович - д.э.н.,
профессор (Национальная академия наук Республики
Таджикистан)
Перская Виктория Вадимовна - д.э.н., профессор
(Финансовый университет при Правительстве РФ)
Молчанов Игорь Николаевич - д.э.н., профессор (Московский
государственный университет имени М.В. Ломоносова)
Басова Мария Михайловна - д.э.н., профессор
(Финансового университета Российской Федерации)
Чупин Александр Леонидович - к.э.н. (Российского
университета дружбы народов имени П. Лумумби)
Незаймакин Валерий Николаевич - д.э.н., профессор (РГТУ)
Никонорова Алла Владимировна - к.э.н., доцент
(Финансового университета Российской Федерации)
Дмитриева Ольга Александровна - к.э.н., доцент
(Финансового университета Российской Федерации)
Швец Юрий Юрьевич - к.э.н., доцент (Институт проблем
управления РАН)
Колосова Елена Валерьевна - к.э.н., доцент (Российский
экономический университет имени Г.В. Плеханова)

Члены Совета редколлегии:

Гулямов Саидхорр Саидхмедович - д.э.н., профессор,
академик
Пардаев Мамаюнус Каршибоевич - д.э.н., профессор
Навруз-зода Бахтиёр Негматович - д.э.н., профессор
Хатамов Очилди Курбанович - д.э.н., профессор
Файзиева Ширин Шодмоновна - к.э.н., профессор
Жумаева Гулрух Журакуловна - к.э.н., профессор
Эгамбердиева Салима Раимовна - к.э.н., доцент
Еркаева Гулбахор Панжиевна - к.э.н., профессор
Якубова Шаминаур Шухратовна - д.э.н., (DSc), доцент
Амиркулов Шухрат Олимович - д.ф.э.н., (PhD), доцент
Самиева Гулноза Тохировна - д.ф.э.наук., (PhD), доцент
Алигулов Азамат Туйгунович - д.ф.э.н., (PhD), доцент
Аминов Фазлитдин Бахадирович - к.э.н., доцент
Хужакулова Нигора Рустамовна - д.ф.э.н., (PhD), доцент
Туробов Шерзод Алишерович - д.ф.э.н., (PhD), доцент
Алимова Муниса Юльчиевна - д.ф.э.н., (PhD), доцент
Эрашиева Насиба Рахматуллаевна - д.э.н., (DSc), доцент
Бобокулов Санжар Бахромкулович - д.ф.э.н., (PhD), доцент
Джалилов Рахмонкул Хамидович - д.ф.э., (PhD), доцент
Номазов Бахром Бобомуродович - д.ф.э.н., (PhD), доцент
Алимханова Нигора Алимхановна - д.ф.э.н., (PhD), доцент
Джанузакон Мирзабек Кулмаматович - д.ф.э.н., (PhD),
доцент
Мухаммадиева Юлдуз Юсуповна - д.ф.э.н., (PhD)
Турсунова Азиза Хошимовна - д.ф.э.н., (PhD)
Холлиев Шерали Бахтиёрович - д.ф.э.н., (PhD)
Панджиев Самиджон Аликулич - PhD, доцент



Xizmat ko'rsatish va turizm sohasi

Service sector and tourism

Сфера услуг и туризм



TURIZM SAMARADORLIGINI OSHIRISH BO'YICHA MINTAQAVIY BOSHQARUV VA IMPLEMENTATSIYA MEKANIZMLARI TAKOMILLASHTIRISH

Toshev Nurbek Janon o'g'li

УСОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ РЕГИОНАЛЬНЫХ МЕХАНИЗМОВ УПРАВЛЕНИЯ И РЕАЛИЗАЦИИ ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ТУРИЗМА

Тошев Нурбек Жанон угли

IMPROVING REGIONAL MANAGEMENT AND IMPLEMENTATION MECHANISMS TO INCREASE TOURISM EFFICIENCY

Toshev Nurbek Janon oglu

Received: March 7, 2026 Revised: March 10, 2026 Accepted: March 14, 2026 Published: April 1, 2026

Annotatsiya: Mazkur maqolada turizm samaradorligini oshirishda mintaqaviy boshqaruv va implementatsiya mexanizmlarini takomillashtirish masalalari tadqiq etilgan. Tadqiqotda turizmni rivojlantirishning institutsional va tashkiliy-iqtisodiy jihatlari tahlil qilingan. Hududiy darajada samaradorlikka ta'sir etuvchi asosiy omillar aniqlangan. Turizm resurslardan samarali foydalanish va xizmatlar sifatini oshirish yo'llari asoslab berilgan. Natijada mintaqaviy boshqaruvda kompleks yondashuvni qo'llash zarurligi ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: turizm samaradorligi, mintaqaviy boshqaruv, implementatsiya mexanizmlari, turizm siyosati, hududiy rivojlanish, turizm klasteri, innovatsiya, infratuzilma, raqobatbardoshlik, barqaror turizm.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы совершенствования регионального управления и механизмов реализации в целях повышения эффективности туризма. В исследовании анализируются институциональные и организационно-экономические аспекты развития туризма. Выявлены основные факторы, влияющие на эффективность на региональном уровне. Обоснованы пути эффективного использования ресурсов и повышения качества услуг в сфере туризма. В результате показана необходимость комплексного подхода к региональному управлению.

Ключевые слова: эффективность туризма, региональное управление, механизмы реализации, туристическая политика, региональное развитие, туристический кластер, инновации, инфраструктура, конкурентоспособность, устойчивый туризм.

Abstract: This article examines the issues of improving regional management and implementation mechanisms in increasing tourism efficiency. The study analyzes the institutional and organizational-economic aspects of tourism development. The main factors affecting efficiency at the regional level are identified. Ways to effectively use resources and improve the quality of services in tourism are substantiated. As a result, the need for an integrated approach to regional management is demonstrated.

Keywords: tourism efficiency, regional management, implementation mechanisms, tourism policy, regional development, tourism cluster, innovation, infrastructure, competitiveness, sustainable tourism.

■ KIRISH

Hozirgi globallashuv va iqtisodiy integratsiya jarayonlari sharoitida turizm sohasi jahon iqtisodiyotining eng tez rivojlanayotgan va yuqori daromad keltiruvchi tarmoqlaridan biri sifatida shakllanmoqda. Turizm nafaqat valyuta tushumlarini oshirish, balki bandlikni ta'minlash, xizmatlar sektorini kengaytirish va hududiy infratuzilmani rivojlantirish orqali iqtisodiy o'sishning muhim drayveri sifatida

namoyon bo'lmoqda. Shu jihatdan, turizmni samarali boshqarish va uning iqtisodiy samaradorligini oshirish masalalari dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasida ham turizmni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. So'nggi yillarda mamlakatda turizmni rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilib, hududiy turizmni rivojlantirish, yangi turizm yo'nalishlarini joriy



etish va infratuzilmani modernizatsiya qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, turistlar oqimi hajmining izchil oshib borayotgani, turizm xizmatlari eksportining kengayishi va yangi turizm obyektlarining ishga tushirilishi ushbu sohaning iqtisodiyotdagi o'rni tobora ortib borayotganini ko'rsatadi.

Mazkur yo'nalishda so'nggi yillarda qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar turizmni rivojlantirishning institutsional va tashkiliy asoslarini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni doirasida turizmni iqtisodiyotning strategik tarmog'i sifatida rivojlantirish, hududiy turizmni qo'llab-quvvatlash va xizmatlar eksportini kengaytirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-apreldagi PQ-5114-son qarori orqali turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilish, yangi turizm yo'nalishlarini (ekoturizm, gastronomik turizm, ziyorat turizmi va boshqalar) rivojlantirish hamda hududiy turizm mahsulotlarini shakllantirishga alohida e'tibor qaratildi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-apreldagi PQ-135-son qarori asosida turizm infratuzilmasini kompleks rivojlantirish, transport-logistika tizimini yaxshilash, joylashtirish vositalari va servis xizmatlarini kengaytirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar belgilab berildi. Ushbu qarorlar turizmni hududlar kesimida rivojlantirish, investitsiyalarni jalb qilish va turizm xizmatlari sifatini oshirishga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, turizmni rivojlantirishda mintaqaviy boshqaruv tizimi va implementatsiya mexanizmlarining samaradorligi alohida ahamiyat kasb etadi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, ayrim hududlarda mavjud turizm salohiyatidan to'liq foydalanilmayapti, infratuzilma va xizmatlar sifati etarli darajada rivojlanmagan, boshqaruv mexanizmlarida esa tizimlilik va samaradorlik etishmaydi. Bu esa turizmning iqtisodiy samaradorligini oshirishda muayyan muammolarni yuzaga keltirmoqda. Shu nuqtai nazardan, turizmni rivojlantirishda mintaqaviy boshqaruv tizimini takomillashtirish, implementatsiya mexanizmlarini samarali tashkil etish, resurslardan oqilona foydalanish va hududiy raqobatbardoshlikni oshirish masalalari dolzarb ilmiy muammo sifatida namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, turizmni boshqarishda institutsional, tashkiliy-iqtisodiy va innovatsion yondashuvlarni integratsiyalashgan holda qo'llash yuqori samaradorlikka erishish imkonini beradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, mazkur maqolaning maqsadi turizm samaradorligini oshirishda mintaqaviy boshqaruv va implementatsiya mexanizmlarini takomillashtirishning nazariy-metodologik asoslarini ishlab chiqish hamda ushbu yo'nalishda ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

■ ADABIYOTLAR SHARHI

Turizm samaradorligini oshirish, mintaqaviy boshqaruv va implementatsiya mexanizmlarini takomillashtirish masalalari ko'plab xorijiy, MDH va

O'zbekiston olimlari tomonidan keng o'rganilgan. Ushbu yo'nalishdagi ilmiy yondashuvlarni shartli ravishda uch guruhga ajratish mumkin: xorijiy ilmiy maktab, MDH olimlari va milliy tadqiqotchilar yondashuvlari.

Xorijiy olimlar orasida Michael Porter turizmni rivojlantirishda klaster yondashuvining ahamiyatini asoslab bergan bo'lib, u hududiy raqobatbardoshlikni oshirishda muhim metodologik asos hisoblanadi [1]. Paul Romer esa innovatsion rivojlanish va bilimlarga asoslangan iqtisodiyotning turizm samaradorligiga ta'sirini ko'rsatib bergan [2]. John Elkington tomonidan ilgari surilgan "Triple Bottom Line" konsepsiyasi turizmni iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jihatdan muvozanatli rivojlantirish zarurligini asoslaydi [3].

Shuningdek, Richard Butler tomonidan ishlab chiqilgan destinatsiyaning hayot sikli modeli (TALC) turizmni bosqichma-bosqich rivojlantirish va boshqarish mexanizmlarini tushuntirib beradi [4]. Chris Cooper hamda Stephen Page tadqiqotlarida turizmni boshqarish, rejalashtirish va marketing strategiyalarining samaradorlikka ta'siri keng yoritilgan [5; 6].

MDH olimlari tadqiqotlarida turizmni mintaqaviy iqtisodiyotning tarkibiy qismi sifatida boshqarish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Xususan, V. A. Kvartalnov turizmni iqtisodiy tizim sifatida rivojlantirish va boshqarishning nazariy asoslarini ishlab chiqqan [7]. N. I. Kabushkin esa turizm menejmenti va xizmatlar sifatini oshirish mexanizmlarini asoslab bergan [8].

Bundan tashqari, L. V. Vasilyeva va E. A. Grechyskhina tomonidan ishlab chiqilgan hududiy boshqaruv va indikatorlar tizimi turizm samaradorligini baholashda muhim ahamiyat kasb etadi [9; 10]. A. Yu. Aleksandrova esa turizm geografiyasi va hududiy rivojlanish omillarini chuqur tahlil qilgan [11].

O'zbekiston olimlari tadqiqotlarida esa turizmni rivojlantirish masalalari milliy sharoit va hududiy xususiyatlar asosida keng yoritilgan. Xususan, M. T. Alimova turizmni rivojlantirishda klaster yondashuvining ahamiyatini asoslab bergan [12]. M. M. Shirinova barqaror turizm modellari va ularni milliy sharoitga moslashtirish masalalarini tadqiq etgan [13].

Shuningdek, M. Karimov tomonidan turizm rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni empirik modellar asosida baholash yo'nalishi rivojlantirilgan [14]. S. A. Abduhamidov esa turizmni davlat siyosati va hududiy boshqaruv bilan bog'liq holda o'rgangan [15]. N. T. Azizova turizm bozorining zamonaviy tendensiyalarini tahlil qilgan bo'lsa [16], G. T. Karazhanova qishloq turizmini rivojlantirish istiqbollarini asoslab bergan [17].

Yuqoridagi ilmiy tadqiqotlar turizmni rivojlantirish va uning samaradorligini oshirishda muhim nazariy va amaliy asos yaratadi. Biroq, mavjud adabiyotlarda turizm samaradorligini oshirishda mintaqaviy boshqaruv va implementatsiya mexanizmlarini kompleks tarzda integratsiyalash masalalari etarli darajada yoritilmagan. Shu bois, mazkur tadqiqot aynan ushbu bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

■ TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda turizm samaradorligini oshirishda mintaqaviy boshqaruv va implementatsiya mexanizmlarini takomillashtirish masalalari kompleks



yondashuv asosida o'rganildi. Tadqiqot metodologiyasi tizimli, institutsional va iqtisodiy tahlil yondashuvlariga asoslanadi.

Tadqiqot jarayonida bir qator ilmiy usullar qo'llanildi. Jumladan, tahlil va sintez usuli orqali turizmni rivojlantirishga oid nazariy yondashuvlar umumlashtirildi. Taqqoslash (komparativ) usuli yordamida turli hududlar va mamlakatlar tajribasi o'rganildi hamda ularning samaradorlik ko'rsatkichlari solishtirildi. Statistik tahlil usuli asosida turizm ko'rsatkichlari (turistlar oqimi, daromadlar, investitsiyalar, bandlik) tahlil qilinib, hududiy rivojlanish tendensiyalari aniqlandi. Shuningdek, tadqiqotda tizimli yondashuv qo'llanilib, turizm samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar (resurslar, infratuzilma, boshqaruv,

investitsiyalar, innovatsiyalar) o'zaro bog'liqlikda ko'rib chiqildi. Institutsional yondashuv orqali turizmni boshqarishda davlat siyosati, normativ-huquqiy baza va boshqaruv mexanizmlarining roli tahlil qilindi.

■ TAHLIL VA NATIJA

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, turizm samaradorligini oshirishda mintaqaviy boshqaruv tizimi va implementatsiya mexanizmlarining roli hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. O'tkazilgan tahlillar asosida aniqlanishicha, turizm rivojlanish darajasi hududning resurs salohiyati bilan bir qatorda, uni samarali boshqarish, infratuzilma bilan ta'minlash va investitsiyalarni jalb etish darajasiga bevosita bog'liq.

1-jadval

Turizm samaradorligini oshirishda mintaqaviy boshqaruv va implementatsiya mexanizmlarining integratsiyalashgan modeli

Bosqich	Tarkibiy elementlar	Mazmuni
1. Kiruvchi omillar (Input)	Turizm resurslari	Tabiiy, tarixiy va madaniy resurslar
	Infratuzilma	Transport, mehmonxona va servis xizmatlari
	Investitsiyalar	Turizmga yo'naltirilgan moliyaviy resurslar
	Inson kapitali	Malakali kadrlar va xizmat ko'rsatish darajasi
2. Boshqaruv va implementatsiya mexanizmlari	Mintaqaviy boshqaruv	Hududiy turizmni boshqarish tizimi
	Institutsional muhit	Normativ-huquqiy baza va davlat siyosati
	Davlat-xususiy sheriklik	Hamkorlik asosida loyihalarni amalga oshirish
	Innovatsiyalar	Raqamli va innovatsion texnologiyalar
	Marketing strategiyalari	Turizm brendingi va targ'iboti
3. Jarayon (Process)	Xizmatlarni tashkil etish	Turizm xizmatlarini shakllantirish
	Hududiy ixtisoslashuv	Turizm yo'nalishlarini rivojlantirish
	Diversifikatsiya	Turizm mahsulotlarini kengaytirish
	Sifatni oshirish	Xizmatlar sifatini yaxshilash
4. Natijaviy ko'rsatkichlar (Output)	Turistlar oqimi	Ichki va tashqi turistlar soni
	Daromadlar	Turizm xizmatlaridan tushum
	Bandlik	Ish o'rinlari soni
	Raqobatbardoshlik	Hududiy ustunlik darajasi
5. Yakuniy samaradorlik (Outcome)	Iqtisodiy o'sish	YAIM va hududiy daromad o'sishi
	Ijtimoiy farovonlik	Aholi daromadlari va turmush darajasi
	Barqaror rivojlanish	Ekologik va ijtimoiy muvozanat

Birinchidan, hududlarda turizm resurslarining mavjudligi etarli bo'lsa-da, ularni samarali foydalanishga yo'naltirilgan boshqaruv mexanizmlarining etarli darajada rivojlanmaganligi kuzatilmoqda. Bu esa turizm salohiyatidan to'liq foydalanilmasligiga olib kelmoqda. Shu sababli, mintaqaviy boshqaruvni takomillashtirish va resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish muhim ahamiyatga ega.

Ikkinchidan, tadqiqot natijalari turizm infratuzilmasining rivojlanganlik darajasi turistlar oqimi va daromadlar hajmiga bevosita ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Ayniqsa, transport-logistika tizimi, mehmonxona xo'jaligi va servis xizmatlarining sifati yuqori bo'lgan hududlarda turizm samaradorligi yuqori darajada shakllanmoqda.

Uchinchidan, investitsiyalar turizm rivojlanishining asosiy drayveri sifatida namoyon bo'ldi.

Investitsiya oqimining ko'payishi yangi turizm obyektlarini yaratish, mavjud infratuzilmani modernizatsiya qilish va xizmatlar sifatini oshirish imkonini beradi. Bu esa o'z navbatida turistlar oqimining ortishiga va iqtisodiy samaradorlikning oshishiga olib keladi.


To'rtinchidan, turizm samaradorligini oshirishda implementatsiya mexanizmlarining ahamiyati alohida e'tiborga loyiq. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, turizm sohasida qabul qilingan qaror va dasturlarni amaliyotga joriy etish darajasi hududlar kesimida farqlanadi. Bu esa ayrim hududlarda turizm rivojlanishining sust kechishiga sabab bo'lmoqda. Shu bois, implementatsiya jarayonlarini monitoring qilish va ularning samaradorligini baholash tizimini takomillashtirish zarur.



Beshinchidan, turizmning multiplikativ ta'siri natijasida boshqa iqtisodiy tarmoqlar, jumladan transport, savdo, qurilish va xizmat ko'rsatish sohasi ham rivojlanmoqda. Bu esa hududiy iqtisodiyotda kompleks o'sishni ta'minlab, aholi daromadlari va bandlik darajasining oshishiga xizmat qiladi.

Muhokama natijalari shuni ko'rsatadiki, mavjud

alohida omillar doirasida o'rganilgan bo'lsa, mazkur tadqiqotda ularning o'zaro integratsiyalashgan holda tahlil qilinishi yangi ilmiy natijalarni olish imkonini berdi. Xususan, mintaqaviy boshqaruv, infratuzilma, investitsiyalar va innovatsiyalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik turizm samaradorligini oshirishda asosiy omil sifatida namoyon bo'ldi.



ilmiy yondashuvlarda turizmni rivojlantirish ko'proq


1-rasm. Turizm samaradorligini oshirishda mintaqaviy boshqaruv va implementatsiya mexanizmlarining turlari

1-rasmda turizm samaradorligini oshirishda mintaqaviy boshqaruv va implementatsiya mexanizmlarining turlari va ularning o'zaro bog'liqligini tizimli tarzda ifodalaydi. Sxemaning yuqori qismida umumiy boshqaruv tizimi keltirilgan bo'lib, undan asosiy yo'nalishlar – mintaqaviy boshqaruv, institutsional, iqtisodiy, innovatsion hamda marketing va implementatsiya mexanizmlariga ajratilgan. Har bir yo'nalish turizm rivojlanishida alohida ahamiyatga ega bo'lib, ular o'zaro integratsiyalashgan holda faoliyat yuritganda yuqori samaradorlikka erishiladi.

Xususan, mintaqaviy boshqaruv strategik va operativ boshqaruv orqali turizmni rejalashtirish va muvofiqlashtirishni ta'minlaydi. Institutsional mexanizmlar esa normativ-huquqiy baza va davlat-

xususiy sheriklik asosida tizimning barqaror ishlashiga xizmat qiladi. Iqtisodiy mexanizmlar investitsiyalarni jalb qilish va moliyaviy rag'batlantirish orqali infratuzilma rivojiga turtki beradi. Innovatsion mexanizmlar raqamli texnologiyalar va zamonaviy xizmatlarni joriy etish orqali turizm sifatini oshiradi. Marketing va implementatsiya mexanizmlari esa turizm mahsulotlarini bozorda ilgari surish va amaliy natijalarga erishishni ta'minlaydi.

Umuman olganda, olib borilgan tadqiqotlar turizm samaradorligini oshirish uchun kompleks yondashuv zarurligini ko'rsatdi. Bu esa mintaqaviy boshqaruvni takomillashtirish, implementatsiya mexanizmlarini kuchaytirish va zamonaviy innovatsion echimlarni joriy etish orqali ta'minlanadi.



2-rasm. Turizm samaradorligini oshirish model shakllari

2-rasmda turizm samaradorligini oshirishda qo'llaniladigan asosiy model shakllarini va ularning yakuniy natijaga ta'sirini tizimli tarzda ifodalaydi.

Sxemaning yuqori qismida umumiy yo'nalish – turizm samaradorligini oshirish modellari berilgan bo'lib, u to'rtta asosiy modelga ajratilgan: strategik, institutsional,



innovatsion va marketing modellari. Strategik model uzoq muddatli rejalashtirish, rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish hamda tahlil va prognozlash jarayonlarini o'z ichiga oladi. Bu model turizmni barqaror rivojlantirish uchun asos yaratadi. Institutsional model esa huquqiy-me'yoriy baza, davlat-xususiy sheriklik va tashkiliy tuzilmalar orqali tizimning barqaror ishlashini ta'minlaydi.

Innovatsion model zamonaviy raqamli texnologiyalar, innovatsion xizmatlar va yangi g'oyalarni joriy etish orqali turizm sifatini oshirishga xizmat qiladi. Marketing modeli esa hududiy brending, reklama va turistik mahsulotlarni targ'ib qilish orqali bozorni kengaytiradi hamda turistlar oqimini oshiradi.

Mazkur barcha modellarning o'zaro uyg'unligi natijasida turistlar oqimi ortadi, daromadlar ko'payadi, bandlik darajasi oshadi va hududlarda barqaror rivojlanish ta'minlanadi.

■ XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi tahlillar, model va sxemalardan kelib chiqib aytish mumkinki, turizm samaradorligini oshirishda mintaqaviy boshqaruv va implementatsiya mexanizmlarining o'zaro integratsiyalashgan holda faoliyat yuritishi muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, turizm rivojlanishi nafaqat resurslar mavjudligiga, balki ularni samarali boshqarish, infratuzilmani rivojlantirish, investitsiyalarni jalb etish va innovatsion yondashuvlarni joriy etish darajasiga ham bevosita bog'liq. Ayniqsa, strategik rejalashtirish, institutsional muhitni mustahkamlash, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish va samarali marketing siyosatini olib borish turizmning raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Shu bilan birga, turizm samaradorligini oshirishda mavjud muammolar – hududlar kesimida rivojlanish darajasining notekisligi, infratuzilmaning etarli darajada rivojlanmaganligi, investitsiya faolligining pastligi va implementatsiya jarayonlarining sustligi kuzatilmoqda. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun mintaqaviy boshqaruv tizimini takomillashtirish, turizmni rivojlantirish bo'yicha hududiy strategiyalarni ishlab chiqish va ularni samarali amalga oshirish mexanizmlarini kuchaytirish zarur.

Tadqiqot asosida quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin: mintaqalar kesimida turizm salohiyatini chuqur tahlil qilish asosida ixtisoslashgan rivojlanish yo'nalishlarini belgilash; turizm infratuzilmasini kompleks rivojlantirish, ayniqsa transport, joylashtirish va servis xizmatlarini modernizatsiya qilish; davlat-xususiy sheriklik asosida investitsiyalarni keng jalb etish; raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali xizmatlar sifatini oshirish va boshqaruv samaradorligini kuchaytirish; hududiy marketing va brending strategiyalarini takomillashtirish orqali turistik jozibadorlikni oshirish; hamda turizm loyihalarining amalga oshirilishini monitoring qilish va baholash tizimini takomillashtirish.

Umuman olganda, turizmni rivojlantirishda kompleks, tizimli va innovatsion yondashuvlarni qo'llash orqali hududiy iqtisodiyotda barqaror o'sishga erishish, aholi bandligini oshirish va milliy

iqtisodiyotning raqobatbardoshligini kuchaytirish mumkin.

Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

1. Toshev Nurbek Janon o'g'li Qarshi davlat universiteti "Turizm va marketing" kafedrasi dots. v.v.b., i.f.f.d. (PhD) / Тошев Нурбек Джанон угли, доцент кафедры туризма и маркетинга Каршского государственного университета, кандидат наук. / Toshev Nurbek Janon oglu, Associate Professor, Department of Tourism and Marketing, Karshi State University, Ph.D. (PhD)

e-mail: toshevnurbek497@gmail.com

ORCID: 0009-0003-5921-5196

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Porter, M. E. Competitive Advantage of Nations. – New York: Free Press, 1990.
2. Romer, P. M. Endogenous Technological Change // Journal of Political Economy. – 1990. – Vol. 98. – P. 71–102.
3. Elkington, J. Cannibals with Forks: The Triple Bottom Line of 21st Century Business. – Oxford: Capstone, 1997.
4. Butler, R. W. The Tourism Area Life Cycle (TALC) Model // Channel View Publications. – 2006.
5. Cooper, C. Tourism: Principles and Practice. – London: Pearson, 2016.
6. Page, S. J. Tourism Management. – London: Routledge, 2019.
7. Kvartalnov, V. A. Turizm. – Moskva: Finansy i statistika, 2019.
8. Kabushkin, N. I. Menedzhment turizma. – Minsk: Novoe znanie, 2016.
9. Vasilyeva, L. V. Regionalnoe upravlenie turizmom. – Moskva: Nauka, 2018.
10. Grechyshkina, E. A. Ekonomika turizma. – Moskva: INFRA-M, 2020.
11. Aleksandrova, A. Yu. Geografiya turizma. – Moskva: KNORUS, 2017.
12. Alimova, M. T. Innovatsionnyy mekhanizm razvitiya turizma v regionakh Uzbekistana // Ekonomika i upravlenie. – 2018. – № 4. – S. 45–52.
13. Shirinova, M. M. Modeli razvitiya ustoychivogo turizma // Vestnik turizma. – 2024. – № 2. – S. 12–20.
14. Karimov, M. Ekonometricheskie modeli razvitiya turizma // Nauchnyy zhurnal. – 2022. – № 3. – S. 55–63.
15. Abduhamidov, S. A. Turizm siyosati va hududiy rivojlanish // Iqtisodiyot va innovatsiyalar. – 2021. – № 2. – B. 33–40.
16. Azizova, N. T. Sovremennye tendentsii razvitiya turisticheskogo rynka Uzbekistana // Ekonomika regiona. – 2023. – № 1. – S. 88–95.
17. Karazhanova, G. T. Perspektivy razvitiya selskogo turizma // Regionalnaya ekonomika. – 2023. – № 5. – S. 101–109.



INNOVATION
IQTISODIYOT
ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

ISSN: 3030-315X



t.me/kstu_uz



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225



www.kstu.uz
www.ojs.kstu.uz